OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM XIZMATLARIDAN OLINGAN DAROMADLAR HISOBINING AMALIY JIHATLARI

Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
dilnoz.abdujalilova.84@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim tashkilotlarida o‘qitish xizmatlariga oid daromadlar hisobini tashkil etishning amaliy jihatlari yoritilgan. Xususan, to‘lov-kontrakt asosida shakllanadigan daromadlarni tan olish, hisobga olish, guruhlash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish amaliyoti tahlil qilingan. Oliy ta’lim tashkilotlarida o‘qitish xizmatlaridan tushadigan mablag‘larning shakllanish manbalari, ularning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi hamda analitik va sintetik hisobni yuritish bilan bog‘liq masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, daromadlarni tegishli hisobot davrlariga to‘g‘ri taqsimlash, debitorlik qarzdorliklarini hisobga olish, to‘lovlar harakatini nazorat qilish va hisob axborotlarining shaffofligini ta’minlash bilan bog‘liq mavjud amaliy muammolar ochib berilgan. Tadqiqot natijasida o‘qitish xizmatlariga oid daromadlar hisobini takomillashtirish, daromadlarni xizmat ko‘rsatish davriga muvofiq tan olish, alohida analitik hisob obyektlarini shakllantirish hamda moliyaviy axborotlarning ishonchliligi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyatini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *analitik hisob, daromadlar hisobi, daromadlarni tan olish, debitorlik qarzdorligi, moliyaviy hisobot, sintetik hisob, to‘lov-kontrakt, o‘qitish xizmatlari.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются практические аспекты организации учета доходов от образовательных услуг в организациях высшего образования. В частности, проанализирована практика признания, учета, группировки и отражения в финансовой отчетности доходов, формируемых на основе платно-контрактной формы обучения. Особое внимание уделено источникам формирования поступлений от образовательных услуг, порядку их отражения в бухгалтерском учете, а также вопросам ведения аналитического и синтетического учета. Кроме того, раскрыты существующие практические проблемы, связанные с правильным*

распределением доходов по соответствующим отчетным периодам, учетом дебиторской задолженности, контролем движения платежей и обеспечением прозрачности учетной информации. По результатам исследования разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию учета доходов от образовательных услуг, признанию доходов в соответствии с периодом оказания услуг, формированию отдельных объектов аналитического учета, а также повышению достоверности финансовой информации и ее значимости при принятии управленческих решений.

Ключевые слова: *аналитический учет, учет доходов, признание доходов, дебиторская задолженность, финансовая отчетность, синтетический учет, платно-контрактная форма обучения, образовательные услуги.*

Annotation. *Abstract. This article examines the practical aspects of organizing the accounting of revenue from educational services in higher education institutions. In particular, it analyzes the practices of recognition, accounting, classification, and presentation in financial statements of revenues generated from tuition-based contractual education. Special attention is paid to the sources of revenue from educational services, their recognition in accounting records, and issues related to maintaining analytical and synthetic accounting. The article also identifies existing practical problems associated with the proper allocation of revenues to the relevant reporting periods, accounting for accounts receivable, monitoring payment flows, and ensuring the transparency of accounting information. Based on the research findings, proposals and recommendations have been developed to improve the accounting of revenue from educational services, recognize revenue in accordance with the period in which services are provided, establish separate analytical accounting objects, and enhance the reliability of financial information and its significance in managerial decision-making.*

Keywords: *analytical accounting, revenue accounting, revenue recognition, accounts receivable, financial statements, synthetic accounting, tuition-based contractual education, educational services.*

O`zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 63-moddasi “Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘larini undiriladigan to‘lovlar hisobidan shakllantirish” deb nomlanib, oliy va o‘rta maxsus, professional davlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim olganlik uchun undiriladigan to`lovlar ya`ni, o`qitish xizmatlari uchun to`lanadigan to`lov-kontrakt summalari hisobidan oliy ta`lim tashkilotlarining tushumlari hamda daromadlari shakllantirilishi belgilab qo`yilgan

[1]. “Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag‘larni taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Nizom asosida oliy va o`rta maxsus ta`lim muassasalarida o`qitish xizmatlari mablag`lari bo`yicha shartnomani rasmiylashtirish, o‘qitishning kontrakt shaklidan tushgan mablag‘lar va ular sarflanishining buxgalteriya hisobi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda yuritiladi [2]. Bundan tashqari barcha oliy ta`lim tashkilotlari ya`ni, faoliyat ixtisosligi bo‘yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish, balansida turgan mol-mulkni ijaraga berish, homiylikdan olingan mablag‘lar va boshqalar hisobidan budjetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasi daromadlarini shakllantirish huquqiga ega [3].

Davlat budjeti mablag`lari moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta`lim muassasasining budjet mablag`lari bo`ysunuvi bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar vazirligining jamlanma smeta-xujjatlari ichida alohida moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta`lim muassasasining mablag`lariga ko`ra moliyalashtirish amalga oshiriladi. Tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan rejalashtirilgan mablag` oyma-oy davomida moliyaviy mustaqillik berilgan OTMning 1000……. shaxsiy g`azna hisob raqamiga moliyalashtiriladi [4].

Moliyaviy mustaqillik berilgan OTMning asosiy moliyalshtirish manbaasi o`qitishning to`lov-kontrakt shakli mablag`lari ekanini ko`rishimiz mumkin. O`qitish xizmatlari ham yana bir nechta qismga ajratilmoqda: o`qitishning bazaviy to`lov-kontrakt mablag`lari, tabaqalashtirilgan yoki oshirilgan to`lov kontrakt mablag`lari, qo`shma ta`lim to`lov-kontrakt mablag`lari, fanlarni qayta o`zlashtirish uchun to`langan akademik qarzdorlik uchun to`lovlar. Hozirgi kunda o‘qitishning to‘lov-kontrakt asosida tuzilgan shartnomalarning hisobi davlat OTMlarining 4009…… – o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag‘larining harakati yuritiladigan shaxsiy g‘azna hisobvaraqda amalga oshirilib kelinmoqda. Shuningdek, qo‘shma ta’lim dasturi asosida tuzilgan shartnomalarning hisobi ham moliyaviy mustaqillik berilgan davlat OTMlarining 4009…… – shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida yuritilib kelinmoqda [5].

«OTM buxgalteriyasida tushumlarni hisobga olishni ko`rib chiqadigan bo`lsak, 102 409 «Ta`lim tashkilotlarida o`qitishning to`lov-kontrakt shaklidan tushumlar» subschyotida budjet tashkilotlari tomonidan o`qitishning to`lov-kontrakt shaklidan tushumlar hisobga olinadi [6].

O`qitishning to`lov kontrakt shaklidan tushumlar hisobda 102 409 «Ta`lim tashkilotlarida o`qitishning to`lov-kontrakt shaklidan tushumlar» subschyotning debetida va 153 600 «Budjet tashkilotlarining talabalar bilan boshqa debitor

qarzlari» subschyotining kreditida aks ettiriladi. Mazkur mablag`larning ishlatilishi hisob-kitoblar va boshqa tegishli subschyotlarning debetiga va 102 409 «Ta`lim tashkilotlarida o`qitishning to`lov-kontrakt shaklidan tushumlar» subschyotining kreditiga yoziladi» (1-jadval).

1-jadval

O`qitishning to`lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag`larining muomalalari mazmuni

T/r	Muomalalari mazmuni	Debet	Kredit
1.	Kontrakt to`lovlari hisoblandi	153 600	520 200
2.	Hisoblangan kontrakt to`lovlari hisob raqamiga to`landi	102 409	153 600

Xulosa qilib aytganda, so‘nggi yillarda oliy ta’lim tashkilotlarida jami xarajatlar va to‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar muntazam ravishda oshib bormoqda. To‘lov-kontrakt xarajatlarining jami xarajatlardagi ulushi 64-66 foiz atrofida saqlanib qolmoqda. Bu oliy ta’lim tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda kontrakt asosidagi tushumlarning strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli to‘lov-kontrakt mablag‘larini umumiy tushum sifatida emas, balki ularning asosiy to‘lov-kontrakt, oshirilgan to‘lov-kontrakt, akademik qarzdorlikni bartaraf etish, qo‘shma ta’lim dasturlari va boshqa tushumlar bo‘yicha alohida hisobini yuritish moliyaviy boshqaruvning shaffofligi va hisobotlarning axborot qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksini tasdiqlash to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabrdagi O`RQ 360 sonli Qonuni, https://lex.uz/acts/2304138

2. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 26.02.2013 yilda ro‘yxatdan o‘tgan «Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag‘larni taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi buyrug‘i, ro‘yxat raqami 2431

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.05.2025 yildagi «Budjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish va budjetdan tashqari jamg‘armalarni shakllantirish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi 325-son qarori.

4. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2018 yil 20 oktabrdagi “O`zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (2-sonli BHS) “Yagona schyotlar rejasi”ni tasdiqlash to`g`risida”gi buyrug`i (O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 20 oktabrda ro`yxatdan o`tgan, ro`yxat raqami 3078).

5. Ostonakulov A.A. “Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag`lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish” monografiya. T: VNESHINVESTPROM nashrièti, 2021, 208 bet.

6. Abdujalilova D.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt shakli mablag'lari hisobini takomillashtirish. // «Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi, tahlil va auditni rivojlantirishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. 2023 yil 12 aprel - Toshkent 2023 yil. 693 b. 527-530 betlar.